



**ALISHER NAVOIY “SADDI ISKANDARIY” ASARIDA AXLOQIY
QADRIYATLAR TIZIMI: ADOLAT, SABR, HALOLLIK VA
TAFAKKURIY YONDASHUVLAR**

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Turabekova Laylo Shavkat qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni asosida adolat, sabr, halollik va tafakkur kabi axloqiy qadriyatlarning ifodalanish usullari tahlil qilinadi. Dostonning har bir qahramoni va voqea tafsilotlari orqali bu qadriyatlar qanday talqin etilgani, ular orqali Navoiy qanday axloqiy idealni ilgari surgani ilmiy yondashuv asosida ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Navoiy, Saddi Iskandariy, adolat, sabr, halollik, tafakkur, axloqiy qadriyat.

Kirish

Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek adabiyotining, balki jahon ma’naviy tafakkurining yirik namoyandalaridan biri sifatida tan olingan. Uning “Xamsa”siga mansub “Saddi Iskandariy” dostoni orif podsho – Iskandar obrazi orqali axloqiy mukammallik g‘oyasini ilgari suradi. Ushbu doston nafaqat tarixiy shaxs va voqealar aks ettirilgan asar, balki falsafiy-axloqiy qarashlarning muhim manbai sifatida ham alohida e’tibor talab etadi. Ayniqsa, doston matnida ko‘plab axloqiy qadriyatlar: adolat, sabr, halollik va tafakkuriy yondashuvlar bevosita yoki bilvosita tarzda yoritiladi. Navoiy bu qadriyatlarni voqealar orqali emas, balki obrazlar ruhiy olami, hikmatli bayon va tasviriy vositalar orqali ifodalaydi. Iskandar timsolida ruhiy yuksalish, adolatli boshqaruv va tafakkur orqali kamol topgan shaxsning obrazini yaratgan. Alisher Navoiy ijodini chuqur o‘rganar ekanmiz, undagi axloqiy g‘oyalar zahirida tasavvufiy tafakkur, islomiy axloqiy tamoyillar va zamonaviy insonparvarlik qarashlari sintezini ko‘ramiz. Ayniqsa, “Saddi Iskandariy” dostoni orqali Navoiy axloqiy yetuklik, ruhiy poklik va adolatli jamiyat qurilishi g‘oyalarini badiiy-falsafiy yondashuv asosida ilgari suradi. Dostonning asosiy qahramoni — Iskandar, tarixiy shaxs sifatida emas, balki orif, odil va tafakkur egasi bo‘lgan ideal hukmdor sifatida tasvirlanadi. Bu obraz orqali Navoiy nafaqat bir shaxsiy namunani, balki umuminsoniy axloqiy mezonlarni ilgari suradi. Uning bayonida adolat — jamiyatni tutib turuvchi asosiy ustun sifatida, sabr — ruhiy yetuklik belgisi, halollik — insoniy kamolot mezoni, tafakkur esa — borliqni anglash va to‘g‘ri yo‘lni tanlash vositasi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, asarda hukmdorning nafaqat siyosiy, balki



axloqiy mas'uliyati ham ustuvor mavqega ega. Dostonning har bir bo'limida axloqiy muvozanat, ruhiy kamol va ijtimoiy adolat g'oyalari badiiy ifodasini topadi. Shu jihatdan, "Saddi Iskandariy" nafaqat adabiy yodgorlik, balki ma'naviy dastur sifatida ham chuqur o'rganishga loyiq asardir.

Asosiy Qism

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni Sharq mumtoz adabiyotida axloqiy-ijtimoiy g'oyalarning poetik ifodasi sifatida yuksak ilmiy-falsafiy ahamiyatga ega. Ushbu asarda tasvirlangan axloqiy qadriyatlar tizimi – adolat, sabr, halollik va tafakkuriy yondashuvlar orqali Navoiy nafaqat zamonasining ideal hukmdori obrazini yaratdi, balki bugungi insoniyat uchun ham dolzarb bo'lgan ma'naviy mezonlarni ilgari surdi. Avvalo, adolat qadriyati asarda eng asosiy tamoyil sifatida ko'tariladi. Iskandar obrazining har bir qarori, harakati va nutqi orqali adolatning chuqur mohiyati ochib beriladi. Navoiy uchun adolat shunchaki siyosiy vosita emas, balki insoniylikning, halollikning, ma'rifat va tafakkurning ifodasidir. Iskandar har bir vaziyatda avvalo zulm va haqsizlikdan yiroq turishga intiladi, har bir qarorni sabr bilan, tafakkur asosida qabul qiladi. Bu holat asar orqali "adl" tushunchasining faqat tashqi siyosiy tartib emas, balki ichki ma'naviy uyg'unlik ekani haqida chuqur falsafiy fikr yuritishga undaydi. Sabr tushunchasi esa Iskandar obrazida ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, hukmdor sifatida qaror chiqarishda sabr bilan kutish va to'g'ri daqiqani aniqlash, ikkinchidan esa, inson sifatida sinovlarga bardoshli bo'lish. Navoiy sabrni kuch emas, aql bilan yo'naltirilgan iroda deb tasvirlaydi. Aynan mana shu jihatlar orqali Iskandar o'z davrining ideal hukmdori darajasiga ko'tariladi. Halollik esa dostonning axloqiy asoslaridan biridir. Iskandar nafaqat o'zining halol ishlari bilan, balki atrofidagi nohaq, firibgar amaldorlarni ham fosh etish orqali halollikni davlat siyosatining yuragi sifatida ko'rsatadi. Bu jihat orqali Navoiy xalq va rahbar orasidagi ishonchning poydevori aynan halollik ekanini ifodalaydi. Tafakkuriy yondashuvlar asarning eng chuqur qatlamini tashkil qiladi. Iskandar maslahatchilar bilan suhbatda, o'z ichki dunyosidagi dialoglarda doim tafakkur qiladi. Har bir voqeani, har bir sinovni, har bir g'alabani u ichki anglash orqali idrok etadi. Bu orqali Navoiy hukmdorning faqat kuch emas, tafakkur egasi bo'lishi kerakligini uqtiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Iskandar obrazida Navoiy hukmdor shaxsini axloqiy jihatdan yetuk, tafakkur bilan boshqaruvchi, sabr bilan qaror qiluvchi va halollik bilan xalq e'tiboriga sazovor bo'luvchi etalon sifatida ko'rsatadi. I. Ismoilov bu haqda shunday yozadi: "Navoiy Iskandarning har bir qarorini faqat davlat manfaatidan emas, balki axloqiy-ruhiy tozalik mezonlari asosida baholaydi, bu esa dostonning o'ziga xos g'oyaviy qatlamini belgilaydi" (2. 126-b). Ushbu iqtibos asarda axloqiy qadriyatlarning chuqur anglab yoritilganini tasdiqlaydi. Shuningdek, "Saddi Iskandariy" dostonining poetik



tuzilishi va falsafiy asoslarini chuqur tahlil qilgan olimlar asar voqealaridagi axloqiy qadriyatlar tizimini g'oyaviy-didaktik qarashlar bilan bevosita bog'laydilar. Asar qahramoni Iskandarning har bir harakati nafaqat adolatni qaror toptirish, balki o'zini tarbiyalash, tafakkur qilish, sabrli bo'lish va halollikni hayot mezoniga aylantirish jarayonidir. Bu jihat, xususan, Navoiy asarining falsafiy chuqurligida yaqqol ko'zga tashlanadi. I. Ismoilov o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, "Navoiy axloqiy fazilatlarni ideal hukmdor obrazida jamlaydi, Iskandarning har bir qadamida uni tarbiyalovchi voqealar zanjiri mavjud. Bu zanjirlar orqali o'quvchi ham ruhiy poklanishga intiladi". Ushbu yondashuv dostonni oddiy tarixiy yoki syujetli asar emas, balki ma'naviy-murabbiyona qo'llanma darajasiga ko'taradi. Navoiyning bu asar orqali bergan sabog'i shundaki, jamiyatni boshqaruvchi shaxs o'zida bir necha asosiy fazilatlarni birlashtira olishi kerak. Iskandar timsolida adolat, sabr, halollik va tafakkuriy yondashuvlar shunchaki umumiy tushuncha emas, balki har birining o'ziga xos holatlarda, hayotiy tajribalarda sinovdan o'tgan shakllari namoyon bo'ladi. Misol uchun, Iskandar ba'zan harbiy yurishlar, ba'zan esa donishmandlar bilan muloqotlar orqali ichki tarbiyasini mustahkamlaydi. Bu jihat, Navoiyga xos tarzda, axloqiy va falsafiy g'oyalarni badiiy-estetik yondashuv bilan uyg'unlashtirgan holda berilgan. Yana bir muhim jihat – Iskandarning tafakkur jarayonlari orqali jamiyatdagi muammolar ildizini anglashga harakat qilishi. U adolatni kuch bilan emas, aql bilan qaror toptirishga urinadi. Bu haqda Ismoilov quyidagi fikrni bildiradi: "Iskandar faoliyati Navoiy tafakkurida faqat tashqi yurishlar emas, balki ichki ruhiy poklanish yo'li sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan Navoiy hikmatli so'zlar vositasida axloqiy tizim yaratadi". Ushbu fikr asarda tafakkur va sabrning o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Halollik masalasi ham bejiz tanlanmagan. Chunki Navoiy nazarida halollik nafaqat shaxsiy fazilat, balki jamiyat taraqqiyoti va boshqaruvning asosiy ustunlaridan biridir. Iskandarning har bir harakati, xalq oldida halol bo'lishga, yolg'ondan yiroq turishga intilishi – bu qadriyatning markaziy o'rin egallashini ko'rsatadi. Asarda bu holatlar real hayotiy misollar orqali mustahkamlangan. Axloqiy qadriyatlar tizimi doirasida Navoiy o'z o'quvchisini doimiy tafakkurga undaydi. Iskandar timsoli bu jihatdan o'ziga xos pedagogik obrazga aylanadi. Har bir vaziyat, har bir epizod o'quvchini ijtimoiy, axloqiy va shaxsiy jihatdan yetuk bo'lishga chaqiradi. Bu fikr I. Ismoilov tomonidan ham chuqur asoslanadi: "Doston voqealari orqali Iskandar obrazida Navoiy o'quvchini ijtimoiy ong va ma'naviy poklik sari yetaklovchi axloqiy idealni yaratgan" (3.175 b). Ushbu g'oya "Saddi Iskandariy" dostonini faqat badiiy emas, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega yodgorlik sifatida qadrlashga asos bo'ladi. Navoiy ijodidagi axloqiy qadriyatlar tizimini tahlil qilishda Qurbonov Sh. tomonidan olib borilgan



izlanishlar muhim ahamiyatga ega. Olimning fikricha, Alisher Navoiy o'z asarlarida, xususan "Saddi Iskandariy" dostonida axloqiy g'oyalarni falsafiy va badiiy uslubda uyg'unlashtirib, uni ijtimoiy ong va shaxsiy kamolotga xizmat qiladigan tizim darajasiga ko'taradi. Qurbonov yozadi: "Navoiy axloqiy g'oyalarni kishilik jamiyatida ijtimoiy barqarorlik, o'zaro ishonch va insoniylik tamoyillarining mustahkam poydevori sifatida talqin etadi" (4-adabiyot, 58-bet). Bu fikr doston mazmunida adolat, sabr, halollik va tafakkur kabi qadriyatlarning chuqur ildiz otganini isbotlaydi. "Saddi Iskandariy"dagi Iskandar obrazi aynan ushbu qadriyatlar asosida shakllantirilgan ideal hukmdor timsolidir. U har bir harakatida jamiyatning manfaatini o'z nafsidan ustun qo'yadi, bu esa halollikning eng yuqori namunasi hisoblanadi. Iskandar o'z oldiga vazifa qo'yar ekan, uni faqat siyosiy emas, axloqiy mezonlar orqali hal qilishga intiladi. Shuning uchun ham uning yurishlari zo'ravonlik emas, haqiqat va adolatni qaror toptirishga qaratilgan. Bu jihat, Qurbonov ta'kidlaganidek, "inson ma'naviy barkamollikka yetishmog'i uchun axloqiy qarorlarni ong bilan tanlay olishi zarurligini" ko'rsatadi (4.59b). Navoiy bu qadriyatlarni faqat o'git shaklida emas, balki syujet ichida faoliyat orqali namoyon etadi. Bu esa o'quvchini tafakkurga undaydi: Iskandarning har bir harakati hayotiy tanlov, axloqiy sinov va ma'naviy qarorlar yig'indisidir. Aynan shuning uchun bu doston faqat bir davr adabiyoti emas, balki zamonlar osha dolzarbligini yo'qotmaydigan axloqiy-ma'naviy meros sanaladi.

Xulosa

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asarida ilgari surilgan axloqiy qadriyatlar tizimi o'z zamoni uchun nafaqat badiiy-falsafiy qarashlar majmuasi, balki ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotning tamal toshi bo'la oldi. Doston orqali ilgari surilgan adolat, sabr, halollik va tafakkuriy yondashuvlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan, balki insonning shaxsiy va jamiyat oldidagi burchini belgilab beruvchi abadiy qadriyatlarga aylangan. Navoiy bu qadriyatlarni nazariy emas, balki hayotiy-aksiologik tajriba asosida namoyon etadi. Ayniqsa, Iskandarning siymosi orqali "hukmdor kim bo'lishi kerak?", "inson qanday yashashi kerak?" kabi falsafiy savollarga javob izlaydi. Shu bois, bu doston faqat adabiy yodgorlik emas, balki bir xalqning axloqiy kompasiga aylangan. Iskandar obrazida mujassam bo'lgan adolat tushunchasi Navoiy tafakkurida Qur'oni karimdagi "adl" va "mizan" konsepsiyalariga uyg'un holda talqin etiladi. Ya'ni, adolat har bir ishda muvozanat va me'yorni saqlash demakdir. Iskandarning saltanatni ilmlar, donishmandlik, maslahat va sabr bilan boshqarishi esa hukmdor faqat kuch emas, balki tafakkur sohibi bo'lishi kerakligini isbotlaydi. Ushbu yondashuv, Ismoilov, Qurbonov va Rahmonov kabi tadqiqotchilar tomonidan ham tahlil qilingan. Jumladan, B. Rahmonov axloqiy yuksalish haqida shunday yozadi: "Tasavvufda inson o'zini anglash,



nafsini poklash orqali haqiqatga yetadi. Navoiy asarlarida bu jarayon adolat, sabr va ma'naviy izlanish orqali amalga oshadi" (5.99-b). Bu iqtibosdan anglashiladiki, Navoiy ijodidagi axloqiy qadriyatlar — tasavvufiy tafakkurning konkret badiiy shakllanishidir. Saddi Iskandariy" dostonidagi halollik masalasi ham bejiz tilga olinmaydi. Zero, doston qahramonlari har bir harakatni halol niyat, pok maqsad asosida amalga oshirishga harakat qiladi. Bunda faqat shaxsiy manfaat emas, balki umuminsoniy qadriyatlar ustuvor qo'yiladi. Bu jihatdan, halollik va sabr o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, har bir to'g'ri yo'l sabr talab etishini Navoiy donolik bilan ifodalagan. Tasavvufdagi bu tushuncha haqida Rahmonov shunday deydi: "Halollik — inson qalbidagi tozalik, sabr esa uning irodaviy poydevoridir. Bu ikki fazilatni birlashtira olgan kishi ma'naviy yuksalish sari intiladi". Navoiy aynan shunday ideallarni Iskandarning shaxsiy namunasi orqali hayotga tatbiq etadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni — bu oddiy badiiy yodgorlik emas, balki axloqiy-falsafiy maktabdir. Bu maktabda har bir inson o'zini angelaydi, o'zini tarbiyalaydi, boshqalarni tushunishni o'rganadi. Asar bugungi yosh avlod uchun ham, jamiyat rahbarlari uchun ham hal qiluvchi ibrat manbaidir. Zero, adolatli hukmdor, sabrli rahbar, halol inson va tafakkur egasi bo'lish — faqat tarixiy tushuncha emas, balki milliy yuksalish garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Navoiy A. Saddi Iskandariy. – T.: Fan, 1993. – 123 b.
2. Ismoilov I. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni misolida. – T.: Anorbooks, 2023. – 126 b.
3. Ismoilov I. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni genezisi va poetikasi. – Toshkent, 2022. – 171–175 b.
5. Qurbonov Sh. Navoiy asarlari va axloqiy qadriyatlar. – T.: Ma'naviyat, 2019. – 56–60 b.
6. Rahmonov B. Tasavvuf va axloqiy yuksalish. – T.: O'zbekiston, 2018. – 98–103 b.